

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA ISHQ TALQINI ANOTATSIYA

ABDURASHIDOVA MOHINUR

FARG’ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI 3-BOSQICH TALABASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aziz Qayumovning “Ishq sahrosi chechaklari” asari yordamida Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida ishqning badiiy va tasavvufiy talqini tahlil qilinadi. Asarda Majnun va Layli obrazlari orqali muhabbatning poklovchi, ruhiy kamolotga yetaklovchi va ilohiy haqiqatni anglashga yaqinlashtiruvchi kuch sifatidagi mohiyati yoritiladi. Dostonning ijtimoiy ziddiyatlari, hijronning ruhiy yuksalishdagi o‘rni hamda Navoiyning tasavvufiy qarashlari asosida ishqning ko‘p qirrali ma‘nolari ochib beriladi. Maqola Navoiy ijodidagi ishq falsafasining Sharq adabiy tafakkuridagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar:

Alisher Navoiy, Layli va Majnun, ishq, tasavvuf, Majnun, Layli, ruhiy kamolot, hijron, visol, Sharq adabiyoti, ilohiy muhabbat, badiiy talqin

Abstract:

This article examines the artistic and Sufi interpretation of love in Alisher Navoi’s epic *Layli and Majnun*, one of the most significant works of classical Uzbek literature. Through the characters of Majnun and Layli, the study reveals love as a purifying force that leads the human soul toward spiritual perfection and the attainment of divine truth. The article analyzes the social obstacles faced by the lovers, the role of separation (*hijrān*) in spiritual elevation, and Navoi’s symbolic portrayal of Layli as a manifestation of divine beauty. The research highlights the multifaceted concept of love in Navoi’s worldview and its essential role within the broader framework of Eastern literary thought.

Keywords:

Alisher Navoi, Layli and Majnun, love, Sufism, spiritual perfection, separation, union, Eastern literature, divine love, symbolic interpretation.

Аннотация:

В данной статье рассматривается художественная и суфийская интерпретация любви в поэме Алишера Навои «Лейли и Меджнун», входящей в его знаменитый «Хамса». Через образы Меджнуна и Лейли анализируется любовь как очищающая сила, ведущая человека к духовному совершенству и постижению божественной истины. Особое внимание уделяется социальным преградам, стоящим на пути влюблённых, роли разлуки (хиджрон) в духовном возвышении, а также символическому изображению Лейли как выражения божественной красоты. В статье раскрывается многогранное понимание любви в мировоззрении Навои и её значимость в контексте восточной литературной традиции.

Ключевые слова:

Алишер Навои, Лейли и Меджнун, любовь, суфизм, Меджнун, Лейли, духовное совершенство, разлука, воссоединение, восточная литература, божественная любовь, символическая интерпретация.

“Layli va Majnun” - Alisher Navoiy “Xamsa” sining uchinchi dostoni (1484). U 3623 baytdan iborat bo‘lib, shu mavzudagi dostonlarga xos aruz vaznining “hazaji musaddasi axrabi makbuzi mahzuf” baxrida yozilgan. Navoiy ushbu dostonni turkiy tilda yaratgan birinchi muallifdir. Alisher Navoiy Layli va Majnun sarguzashtlarining an’anaviy syujet chizig‘ini saqlab qolgan holda voqealarga yangicha ruh va mazmun baxsh etdi hamda dostonga yangi timsollar kiritdi. Alisher Navoiy Layli va Majnun afsonasidan libos sifatida foydalanib, doston mazmuniga o‘z falsafiy qarashlarini singdirib yuborishni maqsad qilganini ta’kidlaydi. Doston Sharq mumtoz adabiyotining an’analariga muvofiq ikkita: zohiriy (ochiq) va botiniy (yashirin) ma’nolarga ega. Zohiriy ma’no oddiy o‘quvchiga ham tushunarli bo‘lib, unda ikki yosh muhabbati o‘z ifodasini topgan. Botiniy ma’no esa ramziy-majoziy tasvirlarga o‘ralgan bo‘lib, unda muallifning falsafiy qarashlari aks etgan. Navoiy dostonning ilk

bobidayoq o'quvchiga o'z ramzlarining kalitini taqdim etadi. Ya'ni u Laylining manzar (ilohiy husn aks etgan) ligini, Majnun esa Iloh ishqida aqldan ajraganini ta'kidlaydi. Bundan Alisher Navoiy dostonning botiniy mazmunida majoziy ishq sinoatlari aks etganligi anglashiladi.

Navoiy bu dostonni yozar ekan o'zidan oldin bu sevgi dostonini yaratgan ijodkorlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Suhayliylar haqida so'zlaydi. Navoiyning fikricha, bu ijodkorlar ishq sahrosida sayr qilmagamlar, eshitgan hikoyalarini qog'ozga tushirganlar. Navoiy esa ulardan farqli ravishda o'zi bu ishq dashtida sarson bo'lgan, o'zi bu ishq o'tida yongan. Bu so'zlar dostonida ishq dashtining musofiriga aytgan so'zlarida ifodalangan:

Menikim otim o'ldi xodayi ishq-
Maskan menga bu vodiya ishq. Etay
Majnun so'zin sanga rost,
Layli g'ami ichra bekamu kost.

Dostonida ishq tasviri boshlanar ekan, "... faqat bir kishi bor, ko'hna osmon boshqa unday kishi bilmaydi. U g'am tuprog'I va suvidan yaratilgan. Ishq olovi va shamoli uning qismatidir ..." Bu ishq yo'l boshchisining so'zlari edi. Navoiy Majnunni shunday ta'riflaydi:

Sargashtayu poyagar nixod ul
G'am bodiyasida girdbod ul
Jismida anosiri murattab,
Kim ayladi paykarini murakkab

Majnun qanchalar fidokorona sevgida yagona bo'lsa, qiz ham husnda shunchalar beqiyos:

Bir nodira ishq muhtalosi
Ne nodirakim jahon balosi.

Andin Ajamu Arab alamda,

Yo'q misli Arab bila Ajamda.

Navoiy asarlarini o'qiguchi kitobxonlarga ma'lumki, shoir o'z asarlaridagi ayol qahramonlarni tasvirlaganda, shoirning ayol go'zalligini qanchalar yuksak tutganligi, bu go'zallikni naqadar nazokat va harorat bilan tasvirlaganiga shohid bo'lamiz.

“...maktab sori jilva ayladi soz, boshdin ayog'iga husn ila noz...” bu sevgi tomon qo'yilgan ilk qadamlar ekani hammamizga ma'lum. Uning kelishi hammani shodlantirdi, go'yoki atrof bahor kelishi bilan yashnab ketgandek. Lekin bu bahori zindagoniy,

Bir naxlni ayladi xazoniy.

Navoiy Majnunining ishq o'tiga muftalo bo'lishini tazod san'ati orqali mohirona tasvirlaydi. Bu ishq Qaysni Majnunga aylantiradi. Uning vujud uyi Savdo o'tining dudlari bilan to'ladi

Alisher Navoiy yaratgan “Xamsa” tarkibiga kiruvchi “Layli va Majnun” dostoni o'zbek adabiyotining eng yuksak badiiy-ma'naviy namunalaridan biridir. Navoiy asarga sharqona muhabbat an'alarini chuqur tasavvufiy mazmun bilan uyg'unlashtirib, ishqni inson ruhiyatini tarbiyalovchi va Haqqa eltuvchi yuksak qudrat sifatida talqin etadi. Shoir qahramonlari orqali insoniy muhabbatning pokligi, sadoqati va jamiyat to'siqlariga bo'ysunmaydigan tabiati yuksak badiiyatda gavdalantiriladi.

Navoiy dostonida ishq faqat ikki insonning muhabbati emas, balki ilohiy haqiqatni anglashning ramzidir. Majnunining Laylidan ayrilib iztirob chekishlari tasavvufdagi “mushahada”, “muroqaba”, “suluk” kabi ruhiy yo'l bosqichlariga uyg'un. Majnunining tabiat bag'riga chekinishi – Haq bilan yolg'iz qolish istagining timsoli sifatida talqin etiladi. Dostondagi asosiy dramatik ziddiyatlardan biri – ikki oshiqning ijtimoiy to'siqlarga duch kelishidir. Urf-odat, ota-onaning qarori, qavmlar o'rtasidagi

ixtiloflar ishqning taqdirini belgilaydi. Navoiy bu orqali muhabbatning jamiyat me'yorlari bilan kurashuvchi yengilmas kuch ekanini ko'rsatadi. Navoiy ishqni hijron orqali yuksaltiradi. Uning talqinida visol – dunyo lazzati, hijron esa ruhiy yetuklik manbai. Majnun Layliga yetolmasligi tufayli ishqini yo'qotmaydi; aksincha, hijron uni ilohiy darajaga ko'taradi. Shu bois doston oxirida ikki oshiqning vafotidan keyin birlashishi – abadiy visolning ramzi sifatida talqin qilinadi. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni ishqning insoniy, ma'naviy va ilohiy darajalarini chuqur yoritgan asardir. Unda muhabbat insonni komillik sari etaklaydigan kuch sifatida tasvirlanadi. Navoiy ishq orqali inson qalbining ulug'ligi, pokligi va Haqqa intilishlarini badiiy talqinda gavdalantirib, butun Sharq adabiyotida abadiy o'rnak bo'lib qolgan asarni yaratgan.

Xulosa. Qays bilan Laylining pok va samimiy sevgisi bora- bora el og'zida doston bo'lib ketadi. Bu sevgi har bir inson qalbidan chuqur o'rin egalladi. asrlar osha bu ikki yosh sevishtanlarning nomi xalqlar o'rtasida evgi, sadoqat, figokorlik timsoli bo'lib qoldi. Navoiy "Xamsa"sining uchinchi asari bo'lmish "Layli va Majnun" o'zbek klassik adabiyotining eng yorqin va zo'r ta'sir kuchiga ega bo'lgan shohona asarlaridan biri sifatida shoirga o'chmas mangulik bag'ishladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Qayumov. Ishq vodiysi chechaklari. Toshkent. 1985
2. Navoiy, A. Layli va Majnun. Akademik matn. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1989.
3. Sirojiddinov, Sh. Navoiy poetikasi. — Toshkent: Fan, 2011.
4. Qosimov, B. Navoiy "Xamsa"sining badiiyati. — Toshkent: Fan, 1979.
5. Yoqubov, A. Navoiy dostonlarida tasavvuf talqini. — Toshkent: Universitet, 2004.

6. Hojiahmedov, A. Alisher Navoiy va Sharq mumtoz adabiyoti. — Toshkent: Mumtoz soʻz, 2015.
7. Bertels, E. E. Navoi I ego sovremenniki. — Moskva: Nauka, 1965.
8. Bertels, E. E. Sufizm va sharq poeziyasi. — Toshkent: Fan, 1991.
9. Sharafiddinov, O. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1996.
10. Azimov, I. Sharq adabiy anʼanalari va Navoiy ijodi. — Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2010.
11. Dehqonov, M. Navoiyshunoslikka kirish. — Toshkent: OʻzMU, 2018.
12. Rypka, J. History of Iranian Literature. — Dordrecht: Reidel Publishing, 1968.